

Date: 3rd August-2026

UDK: 811.111'37:811.512.133'37

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA “ADOLAT” KONSEPTINING KONSEPTUAL BELGILARI VA SEMANTIK REPREZENTATSIYASI

Yazdankulova Gulnigor Muzaffarovna

Samarqand davlat chet tillar instituti

Annotatsiya: Mazkur tezis ingliz va o‘zbek tillarida “Adolat” konseptining konseptual belgilari hamda semantik reprezentatsiyasini qiyosiy-kognitiv va lingvomadaniy nuqtayi nazardan tadqiq etishga bag‘ishlangan. Tadqiqotning asosiy materiali sifatida ingliz va o‘zbek badiiy adabiyoti hamda paremiologik birliklar tanlab olindi. Konseptning mazmuniy tuzilishi faqat lug‘aviy ma’no bilan cheklanmasligi, balki xalqning tarixiy tajribasi, axloqiy qadriyatlari, ijtimoiy munosabatlari va olamni idrok etish usullari bilan bog‘liq holda shakllanishi asoslanadi. Ingliz tilidagi justice va o‘zbek tilidagi adolat birliklari atrofida shakllangan semantik maydon qiyoslanib, konseptning “haqqoniylik”, “tenglik”, “qonun”, “hukm”, “jazolash”, “insoniylik”, “rahm-shafqat”, “haq” va “axloqiy me’yor” kabi komponentlari ajratildi. Tahlil natijasida “Adolat” konsepti ikki til va madaniyatda umumiy universal mazmuniy yadroga ega bo‘lishi bilan birga, uning periferik komponentlarida milliy-madaniy tafovutlar mavjudligi ko‘rsatildi.

Kalit so‘zlar: konsept, adolat, justice, kognitiv semantika, lingvomadaniyat, semantik maydon, konseptual belgi, paremiologiya, badiiy diskurs, qiyosiy tahlil.

Аннотация: Тезис посвящён сопоставительно-когнитивному и лингвокультурологическому исследованию концептуальных признаков и семантической репрезентации концепта «Adolat/Justice» в английском и узбекском языках. Материалом послужили художественные и паремиологические единицы. Установлено, что структура концепта не ограничивается лексическим значением, а формируется историческим опытом, нравственными ценностями и мировосприятием народа.

Ключевые слова: концепт, справедливость, adolat, justice, когнитивная семантика, лингвокультурология, семантическое поле.

Abstract: The thesis presents a comparative-cognitive and linguo-cultural study of the conceptual features and semantic representation of the concept “Justice/Adolat” in the English and Uzbek languages, based on literary and paremiological material. The study demonstrates that the concept’s content is shaped not only by lexical meaning but also by the historical experience, moral values, and worldview of each people, revealing a shared universal core alongside culturally specific peripheral components.

Key words: concept, justice, adolat, cognitive semantics, linguoculturology, semantic field.

Kirish

Zamonaviy tilshunoslikda til birliklarini faqat nominativ yoki kommunikativ vosita sifatida o‘rganish bilan cheklanib qolmasdan, ularning inson tafakkuri, milliy dunyoqarashi



Date: 3rd August-2026



va madaniy qadriyatlarni ifodalashdagi imkoniyatlarini aniqlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu jihatdan konsept tushunchasi kognitiv tilshunoslik, lingvomadaniyatshunoslik va semantikaning kesishgan nuqtasida turuvchi muhim kategoriyalardan biridir. Konsept inson ongida muayyan obyekt, hodisa yoki qadriyat haqidagi bilim, tasavvur, hissiy munosabat va tajribaning umumlashgan modeli sifatida namoyon bo'ladi.

“Adolat” ana shunday universal, biroq har bir lingvomadaniyatda o'ziga xos mazmuniy tuzilishga ega bo'lgan konseptlardan biridir. Deyarli barcha jamiyatlarda adolat insonlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi muhim axloqiy va ijtimoiy qadriyat hisoblanadi. Biroq uning mazmuni turli xalqlarning tarixiy tajribasi, huquqiy an'analari, diniy-axloqiy qarashlari va ijtimoiy hayoti bilan bog'liq holda turlicha verbalizatsiya qilinadi.

Kognitiv tilshunoslik nuqtayi nazaridan konsept tayyor lug'aviy ma'no emas, balki inson ongida tashkil topgan bilimlar tizimidir. G. Lakoff konseptual kategoriyalarning prototipik tashkil topishiga e'tibor qaratib, kategoriyalar qat'iy chegaralardan ko'ra markaziy va periferik birliklar asosida shakllanishini ta'kidlaydi (Lakoff, 1987). Shuningdek, Lakoff va Johnsonning konseptual metafora nazariyasiga ko'ra, abstrakt tushunchalar ko'pincha konkretroq tajriba sohalari orqali anglashiladi va tildagi metaforik ifodalarda namoyon bo'ladi (Lakoff, Johnson, 1980). Ushbu ikki yondashuv “Adolat” konseptini tahlil qilishda muhim metodologik asos bo'la oladi, chunki adolat tushunchasining markazida “haqqoniylik” va “teng munosabat” kabi belgilar tursa, uning periferiyasida qonun, sud, hukm, jazo, rahm-shafqat, burch va insoniylik kabi mazmunlar joylashishi mumkin.

Tadqiqot uchun ingliz tilidagi justice va o'zbek tilidagi adolat leksemalarining lug'aviy-semantik xususiyatlari, shuningdek, badiiy asarlar va maqollarda ushbu tushunchalarning qo'llanishi asosiy material sifatida tanlandi. O'zbek tilining izohli lug'atiga ko'ra, “adolat” leksemasi “odilona ish tutish, odillik” mazmunini ifodalaydi (O'zbek tilining izohli lug'ati, 2006–2008). Bu uning semantik yadrosida xolislik, to'g'rilik va haqqoniylik komponentlari mavjudligini ko'rsatadi.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari

Tadqiqotning asosiy maqsadi ingliz va o'zbek tillarida “Adolat” konseptining konseptual-semantik tuzilishini aniqlash hamda uning badiiy va paremiologik diskursdagi reprezentatsiyasini qiyosiy tahlil qilishdan iborat.

Mazkur maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

1) konsept va konseptual belgi tushunchalarining nazariy asoslarini aniqlash; 2) “Adolat” konseptining semantik yadrosini belgilash; 3) ingliz tilidagi justice va unga aloqador birliklarning mazmuniy maydonini tahlil qilish; 4) o'zbek tilidagi adolat va unga yaqin birliklarning semantik xususiyatlarini aniqlash; 5) badiiy asarlarda adolatning individual va ijtimoiy qadriyat sifatidagi ifodasini o'rganish; 6) maqollarda adolat konseptining xalqona kognitiv modeli qanday shakllanganini ko'rsatish; 7) ikki lingvomadaniyatdagi umumiy va milliy-madaniy komponentlarni ajratish.

Date: 3rd August-2026

Tadqiqot metodologiyasi va material

Tadqiqotda qiyosiy, tavsifiy, konseptual-semantik, komponent tahlil, kontekstual tahlil va lingvomadaniy tahlil metodlaridan foydalanildi. Material sifatida Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostoni, Abdulla Qodiriyning “O’tkan kunlar” romani kabi o‘zbek badiiy manbalari (Navoiy; Qodiriy), shuningdek, ingliz adabiyoti doirasida William Shakespeare’ning “The Merchant of Venice” asaridagi sud jarayoni bilan bog‘liq diskurs (Shakespeare) hamda ingliz va o‘zbek paremiologik materiallari (Speake, Simpson, 2003; Mirzayev va boshq., 2005) tanlandi.

“Hayrat ul-abror” bu jihatdan ayniqsa muhim manbadir: dostonning maqolatlari ijtimoiy-siyosiy va axloqiy masalalar keng yoritilgan bo‘lib, adolat, hukmdorlik, insoniylik va axloqiy mas’uliyat bilan bog‘liq qarashlarni tahlil qilish imkonini beradi.

“Adolat” konseptining kognitiv tuzilishi

Kognitiv yondashuvda konseptning mazmuni bitta so‘zning lug‘aviy izohi bilan chegaralanmaydi. U insonning muayyan hodisa haqidagi bilimlari, tasavvurlari, baholari va tajribalarini birlashtiruvchi mental tuzilma sifatida qoraladi (Lakoff, Johnson, 1980).

Shu nuqtayi nazardan “Adolat” konseptini shartli ravishda quyidagi konseptual qatlamlar asosida modellashtirish mumkin:

1. Axloqiy yadro: haqqoniylik → to‘g‘rilik → halollik → vijdon → odillik.
2. Ijtimoiy qatlam: tenglik → huquq → manfaat → burch → mas’uliyat.
3. Huquqiy qatlam: qonun → sud → hukm → dalil → ayb → jazo.
4. Emotsional-axloqiy qatlam: rahm-shafqat → kechirim → insonparvarlik → vijdon.
5. Qarama-qarshi qatlam: adolatsizlik → zulm → nohaqlik → xiyonat → tarafkashlik.

Mazkur modelda “adolat” konseptining markazida insonlar o‘rtasida me’yoriy va haqqoniy munosabat o‘rnatish g‘oyasi turadi. Periferik qatlamlar esa adolatning turli ijtimoiy vaziyatlarda qanday namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi. Lakoffning prototip nazariyasiga ko‘ra, kategoriyaning barcha a‘zolari bir xil darajada markaziy bo‘lavermaydi; ayrim belgilar prototipga yaqin, boshqalari esa periferik bo‘ladi (Lakoff, 1987). Shu asosda “Adolat” konseptining prototipik markazi sifatida “haqqoniy va xolis munosabat”ni ko‘rsatish mumkin.

Ingliz tilida “Justice” konseptining semantik reprezentatsiyasi

Ingliz tilidagi justice leksemi adolat, qonuniylik va haqqoniy hukm bilan bog‘liq bir necha mazmuniy yo‘nalishni qamrab oladi. Uning semantik maydonida fair, fairness, right, lawful, equity, judge, court, law, punishment, mercy kabi birliklar bilan mazmuniy aloqalar mavjud.

Bunda justice ikki asosiy kognitiv model orqali namoyon bo‘ladi. Birinchi model — JUSTICE AS LAW, ya’ni “adolat — qonun”. Bu modelda adolat qonun, sud, hukm va huquqiy tartib bilan bog‘lanadi. Shakespeare’ning “The Merchant of Venice” asaridagi sud sahnasi mazkur modelning yorqin badiiy ifodasidir: asarda justice va mercy tushunchalari o‘zaro munosabatga kirishadi, qonunning qat’iy talabi bilan insoniy rahm-shafqat o‘rtasidagi ziddiyat badiiy konfliktning markaziy nuqtasiga aylanadi. Godlewski (2024)



Date: 3rd August-2026

ham ushbu asarda justice va mercy munosabatlari tomistik falsafiy nuqtayi nazardan muhim mavzu ekanini qayd etadi.

Ikkinchi model — JUSTICE AS FAIRNESS, ya'ni “adolat — xolislik va teng munosabat”. Bu modelda adolat insonlarning huquq va manfaatlarini muvozanatlash bilan bog‘lanadi.

Ingliz paremiologik materiallarida ham adolat ko‘pincha vaqt, qonun va natija munosabati orqali konseptuallashtiriladi. Jumladan, “Justice delayed is justice denied” maqoli adolatning o‘z vaqtida amalga oshirilishi zarurligini bildiradi (Speake, Simpson, 2003).

Ushbu maqolning kognitiv modeli quyidagicha ifodalanishi mumkin: ADOLAT → O‘Z VAQTIDA QAROR → INSON HUQUQI → IJTIMOYIY ISHONCH. Agar hukm yoki adolat kechiksa, uning ijtimoiy qiymati kamayadi. Demak, ingliz lingvomadaniyatida adolat faqat “to‘g‘ri hukm” emas, balki uning o‘z vaqtida amalga oshirilishi bilan ham bog‘lanadi.

O‘zbek tilida “Adolat” konseptining semantik reprezentatsiyasi

O‘zbek tilida adolat konsepti tarixiy jihatdan axloqiy, ijtimoiy va ma’naviy qadriyatlar bilan chambarchas bog‘langan. “Adolat” leksemasining “odilona ish tutish, odillik” tarzidagi izohi uning semantik yadrosini xolislik va to‘g‘rilik tashkil etishini ko‘rsatadi (O‘zbek tilining izohli lug‘ati, 2006–2008).

O‘zbek lingvomadaniyatida adolatning muhim belgilaridan biri — haq tushunchasi. “Haq” nafaqat huquq, balki insonning o‘ziga tegishli bo‘lgan narsa, haqqoniylik va axloqiy to‘g‘rilik ma’nolarini ham anglatadi. Shu sababli o‘zbek tilida adolat konsepti ko‘pincha “haq”, “haqqoniylik”, “odil”, “nohaq”, “zulm”, “rostlik” kabi birliklar bilan semantik munosabatga kirishadi.

Alisher Navoiy ijodida adolat ijtimoiy boshqaruv va insoniy fazilat bilan birgalikda talqin qilinadi. “Hayrat ul-abror”dagi ijtimoiy-axloqiy masalalar mazkur konseptni shaxsiy fazilatdan kengroq — jamiyat tartibini belgilovchi qadriyat sifatida ko‘rishga imkon beradi (Navoiy).

O‘zbek xalq og‘zaki ijodida ham adolat konsepti faol namoyon bo‘ladi. Xalq maqollari to‘plamida keltirilgan “Adolat — mamlakat ravnaqi”, “Zulm bilan tikkan devor mustahkam bo‘lmas” kabi maqollar adolat va zulm o‘rtasidagi axloqiy oppozitsiyani xalqona tafakkur asosida ifodalaydi (Mirzayev va boshq., 2005).

O‘zbek badiiy tafakkurida adolat ko‘pincha zulmga qarshi qo‘yiladigan qadriyat sifatida ham shakllanadi, ya’ni “adolat”ning mazmuni uning antonimik qutbi — “zulm”, “nohaqlik”, “adolatsizlik” orqali ham aniqlanadi.

Shu sababli o‘zbek tilidagi konseptual modelni quyidagicha ko‘rsatish mumkin: ADOLAT → HAQ → ODILLIK → INSONIYLIK → JAMOAVIY TOTUVLIK. Unga qarama-qarshi model esa: ZULM → NOHAQLIK → ADOLATSIZLIK → IJTIMOYIY NIZO.



Date: 3rd August-2026

Badiiy diskursda konseptning reprezentatsiyasi

Badiiy matn konseptlarning individual va milliy ko‘rinishini aniqlash uchun muhim manba hisoblanadi, chunki yozuvchi abstrakt qadriyatni personajlar, voqealar, konfliktlar va dialoglar orqali konkretlashtiradi.

Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanida ijtimoiy munosabatlar, hokimiyat, oilaviy qarorlar va inson taqdiri bilan bog‘liq konfliktlar orqali adolat va nohaqlik tushunchalarining mazmuniy qirralarini kuzatish mumkin (Qodiriy). Asarda adolat alohida “huquqiy termin” sifatida emas, balki insonning taqdiri va jamiyatdagi munosabatlar bilan bog‘liq axloqiy mezon sifatida namoyon bo‘ladi.

Navoiyda esa adolat ko‘proq axloqiy va ijtimoiy ideal sifatida namoyon bo‘ladi: adolatli inson yoki hukmdor jamiyatdagi tartib va farovonlikning asosiy sharti sifatida tasavvur qilinadi.

Ingliz adabiyotida Shakespeare’ning “The Merchant of Venice” asari justice konseptining huquqiy va axloqiy qatlamlarini bir vaqtda ko‘rsatishi bilan ahamiyatlidir. Sud sahnasida “qonun”ning formal talabi bilan “rahm-shafqat”ning axloqiy talabi to‘qnashadi, shuning uchun mazkur asarda justice oddiy “qonuniylik” tushunchasidan murakkabroq konseptual tuzilishga ega (Shakespeare; Godlewski, 2024).

Qiyosiy tahlil

Ingliz va o‘zbek tillaridagi materiallarni qiyoslash natijasida “Adolat” konseptining universal va milliy-madaniy belgilarini farqlash mumkin (1-jadval).

Konseptual belgi	Ingliz lingvomadaniyati	O‘zbek lingvomadaniyati
Haqqoniylik	justice, fairness	adolat, haqqoniylik
Qonun	law, court, judgment	qonun, sud, hukm
Tenglik	equality, fairness	tenglik, barobarlik
Axloq	right, moral duty	odillik, halollik, vijdon
Jazo	punishment	jazo, jazolash
Rahm-shafqat	mercy	rahm, shafqat, kechirim
Qarama-qarshi tushuncha	injustice, unfairness	adolatsizlik, zulm, nohaqlik
Ijtimoiy ideal	fairness, rights	haq, adolat, totuvlik

Jadvaldan ko‘rinadiki, ikki tilda konseptning universal yadrosi — haqqoniylik, xolislik va adolatli munosabat — o‘xshashdir. Biroq uning madaniy periferiyasida muayyan farqlar kuzatiladi: ingliz materiallarida justice ko‘proq law, court, judgment, rights, fairness kabi huquqiy-ijtimoiy birliklar bilan zich bog‘lanadi; o‘zbek materiallarida esa adolatning haq, odillik, insoniylik, zulmga qarshilik va ma’naviy mas’uliyat komponentlari faolroq ko‘zga tashlanadi.

Bu farq ikki xalqning tarixiy-madaniy tajribasi va adolatni konseptuallashtirish usuli bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Biroq mazkur xulosani mutlaq qarama-qarshilik emas, balki dominant semantik tendensiya sifatida baholash maqsadga muvofiq.



Xulosa

Tadqiqot natijalari ingliz va o'zbek tillarida "Adolat" konsepti universal mazmuniy yadroga ega ekanini ko'rsatadi. Mazkur yadroga haqqoniylik, xolislik, to'g'rilik va insonlar o'rtasidagi me'yoriy munosabat kabi belgilar kiradi.

Kognitiv-semantik jihatdan konseptning strukturasi markaziy va periferik komponentlardan tashkil topadi. Markazda "haqqoniy munosabat" modeli tursa, periferiyada qonun, sud, hukm, jazo, rahm-shafqat, burch, insoniylik va ijtimoiy tartib kabi tushunchalar joylashadi.

Ingliz tilida justice konsepti huquqiy-institutsional model bilan kuchli bog'langan bo'lsa, o'zbek tilida adolat tushunchasi huquqiy mazmun bilan bir qatorda axloqiy-ma'naviy va ijtimoiy mazmunni ham faol ifodalaydi.

Badiiy asarlar va maqollar tahlili shuni ko'rsatadiki, "Adolat" konsepti oddiy lug'aviy birlik emas, balki xalqning axloqiy me'yorlari, ijtimoiy tajribasi va dunyoqarashini aks ettiruvchi murakkab lingvomadaniy birlikdir. Shu sababli uning to'laqonli semantik modeli faqat lug'at ma'lumotlari asosida emas, balki badiiy, paremiologik va kontekstual materiallarni birgalikda tahlil qilish orqali yaratilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Lakoff G. Women, Fire, and Dangerous Things: What Categories Reveal about the Mind. — Chicago: University of Chicago Press, 1987.
2. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. — Chicago: University of Chicago Press, 1980.
3. Speake J., Simpson J. A. (Eds.). The Oxford Dictionary of Proverbs. — Oxford: Oxford University Press, 2003.
4. Mirzayev T., Musaqulov A., Sarimsoqov B., Turdimov Sh. O'zbek xalq maqollari. — Toshkent: Sharq, 2005.
5. Navoiy A. Hayrat ul-abror. — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
6. Qodiriy A. O'tkan kunlar. — Toshkent: Sharq.
7. Shakespeare W. The Merchant of Venice.
8. Godlewski M. "Fie upon the law": The Thomistic Perspective on Justice and Mercy in The Merchant of Venice // Rocznik Komparatystyczny. — 2024. — Vol. 15. — P. 81–98.
9. O'zbek tilining izohli lug'ati: 5 jildli / Tahr. hay'ati. — Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006–2008.

